

O‘ZBEKISTON ELEKTRON HUKUMAT TIZIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Rajaboyev Shahboz Shodi o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Axborot texnologiyalari” kafedrası
assistenti

ORCID: 000-0002-0997-6689

Gafurova Dilobar Samariddinovna

Samarqand iqtisodiyoti va servis instituti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimini rivojlantirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlaridan foydalanish mexanizmlari, ularning huquqiy, tashkiliy va texnologik asoslari hamda amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakatda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar, davlat xizmatlarini ko‘rsatishning onlayn shakllari va ularning aholi uchun yaratayotgan qulayliklari keng yoritilgan. Shuningdek, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, elektron davlat xizmatlariga bo‘lgan talabning oshishi va mavjud muammolar yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: elektron hukumat, AKT, davlat xizmatlari, raqamli transformatsiya, elektron xizmatlar samaradorligi.

MECHANISMS OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY (ICT) SERVICES IN UZBEKISTAN’S E-GOVERNMENT SYSTEM AND THEIR EFFECTIVENESS

Rajaboyev SHahboz Shodi o‘g‘li

Samarkand Institute of Economics and Service, Assistant of the Department of
"Information Technologies"

ORCID: 0000-0002-0997-6689

Gafurova Dilobar Samariddinovna

Student, Samarkand Institute of Economics and Service

Abstrac: This article examines the mechanisms of using information and communication technology (ICT) services within the e-government system of the Republic of Uzbekistan. It highlights the legal, organizational, and technological foundations of digital reforms, the development of online public services, and their impact on improving government efficiency and public convenience. The study also identifies existing challenges and provides recommendations for enhancing digital infrastructure and service quality.

Keywords: e-government, ICT, public services, digital transformation, service efficiency.

Kirish.

Dunyo mamlakatlarida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning eng samarali yoʻnalishlaridan biri — bu elektron hukumat tizimidir. U nafaqat davlat xizmatlarini tezkor va shaffof koʻrinishda taqdim etishni taʼminlaydi, balki fuqarolar bilan davlat oʻrtasidagi muloqotni soddalashtiradi, korrupsiyaning oldini oladi va iqtisodiy oʻsishga zamin yaratadi. Elektron hukumat tizimi ushbu islohotlarning asosiy tayanchlaridan biri boʻlib, davlat xizmatlarini koʻrsatishda ochiqlik, tezkorlik, shaffoflik va samaradorlikni taʼminlashga qaratilgan. AKT xizmatlaridan keng foydalanish esa nafaqat davlat organlari faoliyatini optimallashtirishga, balki fuqarolar va tadbirkorlarga yaratilayotgan sharoitlarning yuksalishiga ham xizmat qilmoqda. Oʻzbekistonda ham elektron hukumat tizimini rivojlantirish 2012-yildan boshlab davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻldi. Raqamli transformatsiya jarayoni ayniqsa 2019–2025-yillarda kuchaydi. Bu davrda 300 dan ortiq interaktiv davlat xizmatlari ishga tushirildi, 40 ga yaqin davlat reyestrlari integratsiya qilindi. Ammo mavjud yutuqlarga qaramay, tizimda hal etilishi zarur boʻlgan masalalar ham mavjud: xizmatlarning baʼzilarida texnik nosozliklar uchrashi, idoralararo integratsiyaning yetarli boʻlmasligi, maʼlumotlar takroriyliigi va kiberxavfsizlik xavflari shular jumlasidan. Mavzuning dolzarbligi aynan Oʻzbekistonning “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, mazkur strategiya davlat boshqaruvini toʻliq raqamlashtirishni maqsad qilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Elektron hukumat tizimi global miqyosda davlat xizmatlarini takomillashtirishda muhim vosita sifatida eʼtirof etilmoqda. ¹Oʻzbekistonda ham soʻnggi yillarda bu yoʻnalishda sezilarli oʻzgarishlar amalga oshirildi. Jumladan: yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali 300 dan ortiq davlat xizmati onlayn shaklga oʻtildi. Davlat xizmatlari markazlari faoliyati optimallashtirilib, aholiga xizmat koʻrsatishda yagona standartlar belgilandi. Mobil ilovalar, elektron toʻlov tizimlari, ID-karta asosidagi identifikatsiya kabi zamonaviy AKT mexanizmlari joriy etildi. “Raqamli hukumat” platformasining bosqichma-bosqich tatbiqi davlat organlari oʻrtasidagi elektron maʼlumot almashinuvini jadallashtirdi. Bularning barchasi mamlakatda davlat boshqaruvining ochiq, qulay va samarali boʻlishini taʼminlashga xizmat qilmoqda. Shu sababdan mazkur mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham nihoyatda dolzarbdir. Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasida davlat boshqaruvini raqamlashtirish jarayonlari izchil davom etmoqda. Xususan, ²“Raqamli

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya xizmatlari boʻyicha yillik statistik toʻplamlar. Toshkent, 2021-2024

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli Oʻzbekiston -2030” strategiyasi. Toshkent, 2020

O‘zbekiston – 2030” strategiyasi davlat xizmatlarini transformatsiya qilish, idoralararo ma’lumot almashinuvini yaxshilash, elektron xizmatlarning ishonchliligi va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlardan biridir. Ushbu strategiya elektron hukumat tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi, xususan, barcha davlat xizmatlarining to‘liq raqamlashtirilishi, yagona axborot platformalari yaratish, ochiq ma’lumotlar tizimini kengaytirish va fuqarolarning davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyatini oshirish kabi vazifalarni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish jarayonida turli hil metodologik yo‘nalishlardan, xususan, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarga asoslangan tahlil hamda normativ-huquqiy tahlil kabi metodologik yondashuvlardan foydalanilgan. Misol uchun tahlil va sintez metodiga qaraydigan bo‘lsak, u quyidagicha tariflanadi: elektron hukumat tizimidagi mavjud mexanizmlar, ularning samaradorligi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda elektron hukumat tizimi so‘nggi yillarda izchil rivojlanib, davlat boshqaruvining muhim yo‘nalishiga aylangan. Ushbu tizimning shakllanish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshirilgan bo‘lib, har bir bosqichda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlari yanada takomillashtirildi. Dastlabki bosqichda (2013–2017-yillar) elektron hukumatning normativ-huquqiy bazasi yaratilgan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ishga tushirilgan va idoraviy axborot tizimlarini shakllantirish ishlari olib borilgan. Keyingi bosqichda (2018–2020-yillar) Davlat xizmatlari markazlari va Davlat xizmatlari agentligi tashkil qilinib, xizmatlarning sezilarli qismi onlayn shaklga o‘tkazildi. 2021-yildan hozirgi davrgacha bo‘lgan uchinchi bosqich esa “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida davlat xizmatlarining 80 foizdan ortig‘ini raqamlashtirish, ID-karta orqali yagona identifikatsiya joriy etish, ma’lumot almashish tizimlarini integratsiya qilish kabi yirik islohotlar bilan tavsiflanadi. Elektron hukumatning samaradorligi asosan AKT xizmatlaridan foydalanish darajasi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda elektron xizmatlar Yagona portal (my.gov.uz), elektron identifikatsiya tizimi (OneID), idoralararo ma’lumot almashinuvi platformalari, mobil ilovalar va elektron to‘lov tizimlari orqali keng qo‘llanilmoqda. Yagona portal orqali 300 dan ortiq xizmat ko‘rsatilayotgani, aholi uchun “bir darcha” tamoyili asosida qulayliklar yaratilgani, elektron navbat, avtomatik monitoring, onlayn to‘lov kabi imkoniyatlarning mavjudligi tizim samaradorligini oshirmoqda. OneID tizimi orqali elektron imzo, ID-karta va biometrik autentifikatsiya asosida fuqarolarning shaxsini tasdiqlash jarayoni soddalashtirildi.

Idoralararo elektron ma'lumot almashinuvi jarayonida 200 dan ortiq tashkilot yagona integratsiya markazi orqali bog'langan bo'lib, bu qog'oz hujjatlar almashinuvi hajmini kamaytirishga, byurokratik jarayonlarni soddalashtirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mobil ilovalar orqali davlat xizmatlarini olish ulushi yil sayin oshib, aholining keng qatlamlari uchun qulaylik yaratmoqda. Aholi va tadbirkorlarning elektron xizmatlarga murojaat ko'rsatkichlari ham tizim samaradorligining o'sib borayotganini tasdiqlaydi. So'nggi yillarda onlayn xizmatlar foydalanuvchilari soni yiliga 20–30 foizga oshib bormoqda.

Xizmatlardan foydalanayotgan aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi, bu esa raqamli savodxonlikning o'sib borayotganidan dalolat beradi. Eng ko'p talab qilinadigan xizmatlar qatoridan soliq to'lovlari, kadastr ma'lumotlari, yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalarni tekshirish, FHDYo xizmatlari, shuningdek, turli xil litsenziya va guvohnomalarning olinishi o'rin olgan. Bu xizmatlarning onlayn shaklga o'tkazilishi aholining vaqt va mablag'ini sezilarli darajada tejash imkonini berdi. Elektron hukumat tizimining amaliy samaradorligi bir nechta yo'nalishda namoyon bo'lmoqda. Avvalo, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ijobiy o'sishni namoyon qilmoqda: byurokratik xarajatlar kamaydi, qog'oz aylanishi 60–70 foizga qisqardi, davlat xizmatlarini ko'rsatishning avtomatlashtirilishi natijasida byudjet tejalmoqda.

O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimining asosiy komponentlari.

1-jadval.

O'zbekiston elektron hukumat tizimining asosiy komponentlari
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal (my.gov.uz)
Yagona identifikatsiya tizimi (OneID)
Elektron raqamli imzo (e- imzo)
Yagona to'lov tizimi (pay.goz.uz)
Davlat xizmatlari markazlari (DXM)
Idoralararo axborot almashinuvi platformasi
Yagona ma'lumotlar bazalari va axborot tizmlari
UZCERT, davlat axborot xavfsizligi markazlari
Raqamli savodxonlik va ko'mak markazlari

Ijtimoiy samaradorlikdan kelib chiqib, aholi uchun xizmat olish jarayonlari soddalashti, xizmat ko'rsatish vaqti keskin qisqardi, chekka hududlarda ham sifatli

xizmat olish imkoniyati yaratilmoqda. Ma'muriy samaradorlik nuqtayi nazaridan esa davlat idoralari faoliyatidagi shaffoflik oshdi, korrupsiya xavfi kamaydi, inson omili ta'siri qisqardi va idoralar o'rtasida tezkor ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yildi. Shunga qaramay, ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, aholining ma'lum qismi orasida raqamli savodxonlik yetarli emas. Chekka hududlarda internet tezligi pastligi, ayrim idoralarda axborot bazalarining eskiligi yoki integratsiya jarayonlarining sustligi ham xizmatlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Elektron hukumat tizimining samaradorligini ta'minlash uchun bir qator aniq omillar mavjud. Tashkiliy-huquqiy asoslarning mustahkamligi elektron xizmatlarning qonuniy va tizimli ravishda amalga oshirilishini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasida "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun hamda axborot xavfsizligini ta'minlashga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimning barqaror ishlashiga asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston elektron hukumat tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi va raqamli davlat boshqaruvining mustahkam poydevorini yaratdi. AKT xizmatlaridan foydalanish mexanizmlarining rivojlanishi davlat organlari faoliyatini soddalashtirib, aholi uchun qulayliklar yaratdi. Elektron xizmatlar nafaqat vaqt tejalishiga, balki davlat boshqaruvida shaffoflik va samaradorlik oshishiga xizmat qildi. Kelgusida elektron hukumatning samaradorligi yanada oshishi uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: sun'iy intellektni davlat xizmatlariga keng joriy qilish, aholining raqamli savodxonligini oshirish, elektron xizmatlar xavfsizligini kuchaytirish, barcha xizmatlarni yagona mobil ilovaga jamlash, "paperless government tizimini to'liq yo'lga qo'yish. Elektron hukumatning rivojlanishi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning kengayishi, davlat boshqaruvining samaradorligi va aholining hayot sifatini oshirishda muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni.
2. Боронов Б.Ф., and Мустафоев А.Ф.. "НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МАСАЛАЛАРИ" Экономика и социум, no. 5-2 (120), 2024, pp. 926-929.
3. Rajaboyev Sh.Sh., and Umidov D.U.. "AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TECHNOLOGIYALARINING BUXGALTERIYA SOHASIDAGI O'RNI" Экономика и социум, no. 4-2 (119), 2024, pp. 393-396.
4. O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni.
5. Боронов Б.Ф., and Саломов Ш.Ф.. "МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТДА НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА УНИ

РИВОЖЛАТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ"
Экономика и социум, no. 5-2 (120), 2024, pp. 921-925.

6. Karimov A., Safarov B. *Axborot xavfsizligi asoslari*. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.